

Journal of Social Research in Uzbekistan**THE INTERPRETATION OF ZEBUNNISO BEGIM'S MYSTICAL VIEWS****Nargiza Shoaliyeva***Candidate of Philological Sciences, Associate Professor**International Islamic Academy of Uzbekistan**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Zebunniso Begim, poetry, enlightenment, mysticism, philosophy, love.

Received: 19.12.24**Accepted:** 21.12.24**Published:** 23.12.24

Abstract: The works of creative women, capable of leaving behind valuable contributions through their remarkable perspectives and strong initiatives, not only constitute a part of our cultural and spiritual heritage but also serve as a source of inspiration and life lessons for today's youth in their education and upbringing. The enlightened poet Zebunniso Begim (1643–1721) is one such outstanding creative figure. This article seeks to analyze the life of the poet and the meaning and essence of her poetry.

ZEBUNNISO BEGIMNING IRFONIIY QARASHLARI TALQINI**Nargiza Shoaliyeva***dosent, filologiya fanlari nomzodi**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalir so'zlar: Zebunniso begim, she'r, ma'rifat, irfon, falsafa, ishq.

Annotatsiya: O'zlarining ajoyib qarashlari va kuchli tashabbuslari bilan qimmatli asarlarni qoldirishga qodir bo'lgan ijodkor ayollarning asarlari madaniy va ma'naviy boyligimiz bo'lishi bilan birga, ularning g'oyalari va shaxsiyati ham bugungi kunda, yoshlarning ta'lim-tarbiyasida hayotiy tajriba misolida xizmat qilishi mumkin. Ma'rifatparvar shoira Zebunniso begim (1643—1721) shunaqa ijodkor ayollar jumlasidandir. Bu maqolada Shoira hayoti va uning she'rlarining ma'no va mohiyatini tahlil qilishga harakat qilingan.

ТОЛКОВАНИЕ МИСТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ ЗЕБУННИСО БЕГИМ

Наргиза Шоалиева*Кандидат филологических наук, Доцент**Международная исламская академия Узбекистана**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: Зебуннисо Бегим, поэзия, просвещение, мистика, философия, любовь.

Аннотация: Творчество талантливых женщин, способных оставить ценный вклад благодаря своим замечательным взглядам и сильным инициативам, не только является частью нашего культурного и духовного наследия, но и служит источником вдохновения и жизненных уроков для современной молодежи в их образовании и воспитании. Просветленная поэтесса Зебуннисо Бегим (1643–1721) является одной из таких выдающихся творческих личностей. В данной статье предпринята попытка проанализировать жизнь поэтессы, а также смысл и сущность ее поэзии.

Zebunniso beginning ma'naviy hayoti va madaniyat olamida boqiy qolishining asosi, islomga e'tiqod va undagi mohiyatni anglash, qadriyatlarga amal qilishdadir. Boburiylar sulolasidan bo'lgan Zebunniso beginning ijodi fors adabiyotidan to Sharq adabiyotidagi darajasi, uning sharq hududiga ayniqsa qadimgi Hindistonga ta'siri, adabiyotning rivojlanishiga turtki bo'lgan.

"Maxfiy" taxallusiga ega Zebuniso 1048 hijriy yilda Shavvol oyining 10-kunida Hindistonda tug'ilgan va u oilaning to'ng'ich qizi bo'lgani uchun otasi u bilan yaqin aloqada bo'lgan. Otasi, dindor, qattiqqo'l va mutaassib bo'lganligi sababli uni tarbiyalash uchun yaxshi va taqvodor ustozlarni tanlagan. Zebunniso begim zabardast shoir, olima, sozanda va xattot bo'lib voyaga yetadi. U fors, arab tillarining sarfu nahvi (morfologiya va sintaksis)ni o'zlashtirgan. U ilm o'rganayotgan chog'ida Qur'oni Karimni yod olib, ibodat va xayrli amallar qilishdan ham chetda qolmagan.

Otasining ismi Muhiddin Muhammad bo'lib, hijriy 1208 yilda tug'ilgan. U 1068 hijriy yilda hukmronlikka erishdi va hijriy 1118 yilda vafot etdi. Uning Avrangzeb, Olamgir, Shoh G'oz, Xolid Makon kabi laqablari bor edi.

"Maxfiy" ning onasi Dilrasobonu Gulbadan begim Shohnavozxon va Nuh Rustamxon ibn Sulton Husaynmirzo ibn Bahrom Mirzo ibn shoh Ismoilning farzandi bo'lib, sufiylar avlodidan edi. Muhammad Avrangzeb ushbu sharaflilar xonimga o'n sakkiz yoshida hijriy 1046 yil Zulhijja oyining 23 kuni, seshanba kechasida uylangan.

Zebunniso beginning asosiy mashg'uloti she'riyat, musiqa, ilm bo'lgan. U butun huzur-halovatni, taqdir va baxtni, kishilar orzu qilgan jannatni ham kitobda, ilmda, deb bilgan. Lirik she'rlar bilan birga odob va axloqqa oid «Zeb ut-tafosir» («Go'zal tafsirlar»), «Zeb un-nashot» («Nash'alar

ziynati») va tasavvuf falsafasiga doir «Munis ul-arvoh» («Ruhlarning sodiq do‘sti») kabi risolalar ham yozgan. She’rlari ajdodlarining yurti Markaziy Osiyoda, Hindiston, Afg‘oniston, Eron, Pokiston va boshqa Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan.

Shoiraning she’riy merosi bizgacha to‘liq yetib kelmagan. 8000 misrali bir devoni (g‘azallari), 7 qasidasi, 5 tarje‘band va bir muxammasigina saqlanib qolgan. Ba’zi manbalarda shoiraning «Maxfiy» taxallusi bilan ijod qilgani aytiladi. 19-asrning 2-yarmi — 20-asr boshlarida ko‘chirilgan «Devoni Maxfiy» Zebunniso begimga nisbat beriladi. Zebunniso begim asarlari qo‘lyozmasi dunyodagi ko‘pgina kutubxonalarda, shu jumladan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi (inv. № 2590, 1269, 1936). Dehlidagi «Zarzari» qabristoniga Nizomiddin Avliyo, Amir Xusrav Dehlaviy yonida dafn etilgan.

Zebunniso begim ijodida ijtimoiy, falsafiy va tasavvufiy fikrlar chuqurroq ildiz ota boshladi. Odatda tasavvufchilar va darveshlar o‘z hayot yo‘llarini Pir yoki Muridning izdoshlari bo‘lib, o‘zlarini so‘fiylar sulolasi yoki guruhlaridan biriga bog‘laydilar. Zebunnisoning so‘zlariga ko‘ra, bu usul qabul qilinishi mumkin emas chunki ishq yo‘lida sheriklik qilish gunoh hisoblanadi. Ushbu fikr bu olim ayolning uzoqni o‘ylab ish ko‘radigan qarashlarining eng nozik va hayratlanarli jihatlaridan biridir.

ره عشق است ای مخفی مجرد بایدت رفتن

که گر عیسی بود همدم رفاقت را نمی شای

(Ma`nosi: Maxfiy ishq yo‘liga yolg‘iz bormoq zarur, agar Iso bo‘lsa rafiqlik hamdami xush kelmas)

Shuni ta’kidlash kerakki, Zebunnisoning o‘zi inson murabbiysiz hech narsaga erisha olmaydi deb hisoblaydi, biroq ustoz shogird va pirparastlik o‘rtasida farq bor:

بی مربی هیچ کس در هیچ جا کاری نساخت

بی مددکاری ابری قطره ای دریا نشد

(Ma`nosi: Murabiysiz hech kim hech qayerda ish qilmadi, Madadgorsiz bulut dengizga qatra bo‘lmadi)

U irfon muddailari bilan so‘fiylar guruhlar va firqalari maqsadga erishish uchun keng asoslar bilan bir qatorda ustoz va yo‘lboshchi o‘rtasida farq bor deb hisoblaydi.

درویشی و تنهایی شرط است به هم بودن

سلطان اقالیمی گر هم نفسی داری

(Darvishlik va yolg‘izlik sharti birga bo‘lmoq

Iqlimlar sultonisan agar ham nafsing bo‘lsa)

“Maxfiy” o‘z nutqida so‘fiylarning istilohlariga ishora qilib, o‘zini tasavvuf yo‘liga ehtiyotkorlik va ochiq ko‘z bilan qadam bosgan inson sifatida ko‘radi.

دختر شاهم و لکن رو به فقر آورده ام

زیب و زینت بس همینم نام من زیب الناساست

(Shoh qizi bo'samda faqrga yuz tutganman

Zebu zarga ne hojat nomim yetar Zebunniso)

Oldinlari so'fiylar va ayrim tasavvuf namoyandalari o'zlarini tanitish uchun portret chizdirishlari odat tusiga kirgan edi. Shuning uchun Maxfiy o'z she'rlarida Majnun, Kuhkan, Mansur kabi ba'zi mashhur obrazlarni eslatib o'tgan va ularning har biridan o'ziga xos xususiyatlarni olgan. Majnundan sahroda sayr qilish, Mansurdan dorga osilish va Kuhkandan zulmat yolg'izlik va haqiqatga yetisha olmaslik.

گاه فرهادم به کوه و گاه مجنونم به دشت

بيخودم مخفی چنين، آن چشم جادو کرده است

(Gohida Farhodman toq'da, goh dashtda Majnunman

Maxfiy ul ko'zni jodulagan kechib o'zlikdan)

می زنم لاف انا الحق بر سر بازار عشق

تازه منصوری دگر، بر دار خواهم کرد و رفت

(Ishq bozori boshida Analhaq deb lof uraman

Endi boshqa Mansurni dorga osib ketarman)

ما گرم روان ره عشقیم چو منصور

از دار نترسیم و ز احباب نگردیم

تا قبله ما طاق دو ابروی تو باشد

نزدیک به بتخانه محراب نگردیم

(Biz Mansur kabi ishq yo'lining ravon issig'imiz

Dordan qo'rqmaymiz va habibdan qaytmaymiz

To bizning qiblamiz sening ikki qoshing toqi ekan

Butxona mehrobiga yaqin yurmaymiz)

Ushbu she'rlarda Zebunniso o'zini o'z asri irfoning namunasi va obrazi sifatida ko'rsatadi va uning chehrasi Mansur, Majnun kabilarning jilvasidir. U ayollik tabiatini hisobga olib o'zini Majnun emas, Layli deb biladi. Ammo uning ma'naviy fazilatlarini erkaklarga xos bo'lib, majnunsifat holatga to'g'ri keladi.

گرچه من لیلی اساسم دل چو مجنون در هواست

سر به صحرا می زنم لیکن حیا زنجیر پاست

(Agarda Layli asos bo'lsamda, kunglim havoyidir Majnun kabi

Boshimni sahroga urgim kelar, ammo oyoqlarimda hayo zanjiri)

Tarixchilar va biograflar bir ovozdan Zebinisoning turmush o'rtog'i bo'lmaganiga ishora qilishgan. Ba'zilar bu buyuk xonim hech kimni umr yo'ldoshlikka loyiq ko'rmagan deb yozishgan. Zebunniso erkaklar orasida o'ziga munosibini topa olmadi va oila qurmasdan bu foniy olamni tark

etdi. Aslida u ham boshqa qizlar singari turmush qurishni xohlar edi. Bu haqida u quyidagicha ta'kidlab aytadi:

صد بهار آخر شد و هر گل به فرقی جا گرفت
 غنچه باغ دل ما زیب دستاری نشد
 کار ما آخر شد و آخر ز ما کاری نشد
 مشک خاک ما غبار کوچه یاری نشد

(Yuz bahor oxiriga yettiyu har gul o'z o'rnini topdi,
 Bizning kungil gunchamiz, zebi dastor bo'lmadi.
 Bizning ish oxiriga yettiyu, oxir bizga kor bo'lmadi,
 Bizning tuproq mushki, yor kuchasin changi ham bo'lmadi)

Shubhasiz, unga o'xshash fikrlovchi va unga xizmat qilgan yoki uning huzuriga kelgan odamlarning soni shunchalik ko'p ediki, o'sha paytdagi barcha fazilatli insonlar uning huzuriga tashrif buyurishgan desak mubolig'a bo'lmaydi. Shunday ekan, mazkur shoira haqida batafsil ishashni va bu borada alohida tadqiqotni talab qiladi.

Foydalangan manba:

1. Шерматов, Саттор (2019). „Зебуннисо зийнати“. Жаҳон адабиёти. № 12.
2. Жалолов, Тўхтасин. Ўзбек шоирлари. Тошкент: Гафур Гулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1970 — 344-bet.
3. Yuldashev, Botir. Boburiy malikalar. Toshkent: Ochun, 2022 — 208-bet. ISBN 978-9943-6805-9-3.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Zebunniso_begim
5. <https://fa.wikipedia.org/wiki/%D8%B2%DB%8C%D8%A8%E2%80%8C%D8%A7%D9%84%D9%86%D8%B3%D8%A7>
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/zebunniso-begim-samarqand-ushshogi.html>
7. <https://hawzah.net/fa/Magazine/View/3992/4003/22319/%D8%B2%DB%8C%D8%A8-%D8%A7%D9%84%D9%86%D8%B3%D8%A7%D8%A1-%DA%86%D9%87%D8%B1%D9%87-%D9%85%D8%AE%D9%81%DB%8C-%D8%A7%D8%AF%D8%A8-%D9%BE%D8%A7%D8%B1%D8%B3%DB%8C-%D9%82%D8%B3%D9%85%D8%AA-%D8%A7%D9%88%D9%84>
8. <https://gorotheadabiyat5.blogfa.com/post/36/>